O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil "20" 08

# ADABIYOT NAZARIYASI
## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 - San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 - Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)<br>6023200–Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bilan) |

Toshkent - 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori ________ H.V. Mirzaxmedova

Xitoyshunoslik oliy maktabi boshlig'i ________ F.M.Xasanova

TDSHU ARM direktori: ________ M.M.Yuldasheva

| Fan/modul kodi<br>AN1304 | | O‘quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>4 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Adabiyot nazariyasi | | 48 | 72 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad**–talabaga adabiyotshunoslik bo‘yicha bilim berish bo‘lib, unda badiiy asar mohiyati va ijod psixologiyasi, adabiy tur va janrlar, badiiy asarning shakli va mazmuni, poetik nutq, uslub va shu kabi bir qator nazariy qonuniyatlarni aniq badiiy asarlarga tatbiq etgan holda o‘rgatishdan iboratdir.

**Fanning vazifasi:**- san’at turlari, xususan, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyatini tushuntirish;

-adabiy tur va janrlar masalasini talqin etish;

-adabiyotshunoslik dasturida berilgan mavzularni yangiliklar bilan boyitib borish;

-epik, lirik va dramatik turlar sinkretizmini tushuntirish;

-adabiyotshunoslik vositasida adabiy jarayonni baholab borish,

-adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog‘lanishni tushuntirish;

-adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini o‘rgatish;

-adabiyotshunoslik maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatini aniqlash;

-badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, tarjima jarayonida matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

-badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qilishni tushuntirish;

-jahon adabiyotshunosligidagi tahlil metodlari bilan tanishtirish;

-adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish;

-o‘zbek adabiyotshunoslarining yangi ilmiy tadqiqotlar, maqola, tezis va taqrizlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatish;

-talabaga san’at asarlarini his qilish va uning mohiyatini anglashni, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni o‘rgatish.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi “Harvard University” (QS-5), THE-3), “The Ohio State University” (QS-208), THE-116), hamda “University of Florida” ((QS-215), THE-136) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.
(https://scholar.harvard.edu/files/mbronstein/files/syllabusamlit.pdf,
https://english.osu.edu/sites/english.osu.edu/files/ss12auEng4562syllabus12_Prinz_2021britam.pdf,
https://undergrad.aa.ufl.edu/media/undergradaaufledu/gen-ed/ge-core-

syllabi/core-syllabi-2024/spring-2024/25140.pdf)

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Modul. Adabiyotshunoslik fanining umumiy asoslari**

**1-mavzu. Adabiyotshunoslik – adabiyot haqidagi fan**

"Adabiyotshunoslik" fanining maqsad va vazifalari. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari va yordamchi sohalari. Adabiyotshunoslikning o'rganish ob'ekti. Adabiyotning og'zaki va yozma shakli. Adabiyotshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi. Introduction to American Literature: (The 20th Century. (Amerika adabiyotiga kirish: 20-asr)

**2-mavzu. Badiiy adabiyot san'at turi sifatida**

San'at tushunchasi. Amaliy va badiiy san'atlar. Badiiy adabiyot - so'z san'ati. Badiiy adabiyotning san'at turlari orasidagi o'rni va o'ziga xosligi. Badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan aloqasi. (Literature and the Arts Connections Between Poetry and Painting (Adabiyot va san'atning she'riyat va rasm o'rtasidagi aloqalari)

**3-mavzu. Adabiyotshunoslik maktablari**

Adabiyotshunoslik maktablari. Adabiyotshunoslik maktablari faoliyati, ularning namoyandalari. Adabiyotshunoslik fanining tarixiy taraqqiyoti.

**4-mavzu. Badiiy adabiyotda mavzu va g'oya**

"Badiiy asar" tushunchasi. "Badiiy asar" tushunchasining keng va tor ma'noda qo'llanishi. Badiiy ijod jarayoni haqida. Badiiy asarda ijod jarayoninig muhrlanishi. Adabiy asarning yaxlitligi, bir butunligi, birinchi navbatda, unda foydalangan mazmun bilan belgilanishi.

**5-mavzu. Badiiy asarda shakl va mazmun**

Shakl va mazmun mutanosibligi. Badiiy asarlarda mazmun va shakl birligi tufayli ko'p qirrali borliq jonli holda alohida hodisalar va o'ziga xos sifatlarning o'zaro aloqadorligi. (Introduction To Literature (Adabiyotga kirish)

**6-mavzu. Adabiy tur va janrlar**

Badiiy asar turlari. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi. Epik janrlar. Epos va roman. Sharq adabiyotida kichik epik janrlar.

Drama va teatr. Yangi davrda dramatik janrlar. Dramatik asarda syujet va kompozisiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Dramatik asarda monolog va dialog.

Lirik she'riyat va nasriy lirika. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang. Lirikada shakl va mazmun mutanosibligi. Lirik asarda syujet va kompozisiya. Lirik asar personajlari. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif.

**7-mavzu. Badiiy o'braz va o'braz yaratish turlari**

O'brazlilik – o'braz badiiylik. Badiiy o'braz va uning xususiyatlari. O'braz- personaj-xarakter-tip. Badiiy adabiyotda tipiklashtirish. O'braz

yaratish yollari. O'blazlar tasnifi.

**8- mavzu. Badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi**

Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi. Badiiy asarda voqea qatlami. Syujet va fabula: Adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviy) obrazi. Kompozisiya va komponent. Personaj, xarakter, tip (yig'ma xarakter).

**9- mavzu. Badiiy asarning til xususiyatlari**

Badiiy til tushunchasi. Badiiy til badiiy informatsiya yetkazish vositasi. Badiiy tilning spesifik xususiyatlari. Badiiy nutq shakllari. Badiiy tilning adabiy til hamda milliy til tushunchalari bilan munosabati. Jonli, adabiy, badiiy tillar. Badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlari. Mullif nutqi. Personaj nutqi

**10- mavzu. Badiiy san'atlar**

**11 - Adabiy yo'nalish va oqimlar**

Adabiy jarayon. Adabiy yo'nalish va oqimlar. Ularning taraqqiyot tendensiyalari. Jahon adabiyotidagi etakchi metod va oqimlar. Yozuvchi uslubi.

**12- mavzu. Badiiy asar tahlilining asosiy tamoyillari**

Tahlil va talqin tushunchalari, ularning tushunish jarayonidagi nisbati haqida. Badiiy asarni tushunish jarayonidagi ob'ektiv va subyektiv jihatlar haqida. Kontekstual va immanent tahlil. Tahlil metodlari

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

- Adabiyotshunoslik fanining maqsadi va vazifalari
- Badiiy adabiyot san'at turi sifatida
- Adabiyotshunoslik maktablari faoliyati va ularning namoyandalari
- Badiiy asarda shakl va mazmun
- Badiiy asarning til xususiyatlari
- Badiiy san`tlar
- Badiiy o'braz va uning xususiyatlari
- Kompazisiya va komponent
- Badiiy asar tahlilining asosiy tamoyillari
- Adabiy tur va janrlar shakllanishi
- Jahon adabiyotidagi yetakchi metod va oqimlar
- Tahlil va talqin munosabati

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Badiiy asarda estetik faoliyat tushunchasi.
2. Badiiy san`at turlarini umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlari.
3. Badiiy adabiyotnining o'ziga xosligini boshqa san'at turlari, masalan, musiqa va rangtasvir bilan qiyoslash
4. Badiiy adabiyot - so'z san`ati ekanligi (Jahon adiblari asarlari misolida) Badiiy adabiyotning san`at turlari orasidagi o'rni va o'ziga xosligi.

| | |
|---|---|
| | 5. Adabiyotshunoslik maktablarining vujudga kelishi, tarixiy omillari. Jahon adabiyotida mavjud zamonaviy adabiyotshunoslik maktablari.<br>6. Badiiy adabiyotda dunyoqarash va g'oyaviylik.<br>7. Adabiyotning xalqchilligi, milliyligi va umuminsoniyligi.<br>8. Badiiy asar tuzilishi va o'brazlar tasnifi.<br>9. Badiiy asarning syujeti va kompozitsiyasi.<br>10. Syujetning tarkibiy qismlari.<br>11. Badiiy asar tili.<br>12. She'riy asarda mazmun va shaklning o'ziga xosligi.<br>13. Ijodiy metodlar va yozuvchi pafosi.<br>14. Hozirgi adabiy jarayonda novatorlik va an'anaviylik tushunchasi<br>15. Tahlil va talqin tushunchalari, ularning tushunish jarayonidagi<br>16. Leksik qatlamlarning badiiy asardagi o'rni.<br>17. Personaj nutqi va muallif nutqining ta'sirchanlik darajasi.<br>18. Dramatik asarlarda muallif nutqining o'rni.<br>19. Xalq jonli tilining badiiy asrlarlarda qo'llanilishi va uning ijobiy hamda salbiy tomonlari.<br>20. "Moderenizm" adabiy oqimi va uning o'zbek adabiyotidagi ko'rinishlari.<br>21. Lirik turning yangi janrlari.<br>22. Epik tur.<br>23. Dramatik tur va uning janrlari taraqqiyoti.<br>24. Badiiy asar tahlilining o'ziga xosligi.<br>25. Adabiy tahlil tamoyillari.<br>*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*<br>▪ mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;<br>▪ badiiy-ijodiy ishni bajarish;<br>▪ kurs loyihasini bajarish;<br>▪ aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;<br>▪ berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;<br>▪ amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;<br>▪ ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**<br>▪ o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;<br>▪ ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;<br>▪ fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;<br>▪ mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi; |

| | |
|---|---|
| | ▪ kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalami o'z vaqtida bajarishi.<br>**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>▪ |
| **4.** | Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>▪ badiiy adabiyotning mohiyati, uning jamiyatdagi o'rni va vazifalari to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;<br>▪ badiiy adabiyotni san'atga dohil etuvchi o'brazlilik va o'braz tushunchalarini bilishi va ulardan foydalana olishi malakalariga ega bo'lishi;<br>▪ badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmun tomonlari, badiiy asar syujeti, kompozisiyasi, badiiy til, inson o'brazini yaratish yo'llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo'nalishlar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.<br>adabiy ta'sir masalalarining nazariy asoslari haqida ma'lumot berish sharq va jahon adabiyotidagi jarayonlami o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilish; davr mahsuli – san'at asarini o'rganish; adabiy aloqalarda o'z ijodi bilan samarali xissa qo'shgan adiblar ijodini bilishi va ulardan foydalana olish bilan bog'liq ko'nikmalariga ega bo'lishi;<br>**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• rolli o'yinlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni tayyorlash;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar va hokazolar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn] : darslik /. - Toshkent: «Noshir» nashriyoti, 2019. - 336 b.<br>2. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi „ O'qituvchi " nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2005<br>3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – 416 b.<br>2.Mirziyoyev Sh. Erkin, obod va farovon mamlakatni- yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz: учебное пособие/ - 2023<br>3.Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: |

| | |
|---|---|
| | O'zbekiston, 2024.<br>4.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. O'quv metodik qo'llanma. T.: O'zbekiston, 2001<br>5.Xalizev V.E. Teoriya literaturi. – M.: «Visshaya shkola», 1999<br>6.Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: 2007.<br>**Scopusdan maqolalar**<br>1.Gunn G. Introduction: Globalizing literary studies //PMLA. – 2001. – T. 116. – №. 1. – C. 16-31.<br>2.Levine S., Hauser M., Smith M. W. Authority and authenticity in teachers' questions about literature in three contexts //English Teaching: Practice & Critique. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 192-208.<br>3.Linders G. M., Louwerse M. M. Lingualyzer: A computational linguistic tool for multilingual and multidimensional text analysis //Behavior research methods. – 2023. – C. 1-28.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www. pedagog. uz<br>2. www. Ziyonet. uz<br>3. www. edu. uz<br>4. www. nutq. intal. uz<br>5. https://scholar.harvard.edu/files/mbronstein/files/syllabusamlit.pdf.<br>6.https://english.osu.edu/sites/english.osu.edu/files/ss12auEng4562syllabus12_Prinz_2021britam.pdf.<br>7. https://undergrad.aa.ufl.edu/media/undergradaaufledu/gen-ed/ge-core-syllabi/core-syllabi-2024/spring-2024/25140.pdf |
| 7. | Fanning o'quv dasturi "Xitoyshunoslik oliy maktabi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 yil "18" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>J. Ziyamuhamedov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Xitoyshunoslik oliy maktabi " professori, f.f.d.<br>Sh.T.Komilova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Xitoyshunoslik oliy maktabi" katta o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>D.Z. Muhiddinova– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Arabshunoslik oliy maktabi" dots., f.f.d.<br>A.Tilavov– A. Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.n. |